



SOME ASPECTS OF INDEPENDENCE TERMINOLOGY

Khashimova Khurshida Djurakhanovna

University of Business and Science

associate professor, etc. (PhD)

Namangan, Uzbekistan

xurshidaxonxashimova@gmail.com

+99897-2317501

ARTICLE INFO

Received: 11th July 2024

Accepted: 16th July 2024

Online: 17th July 2024

KEY WORDS

Lexicon, term,
terminology,
terminological layer, field
terms.

ABSTRACT

It is known that the development of terminology in different languages is closely related to the factors of language development, in particular, social, political, cultural and purely linguistic reasons. One of the most relevant issues of the theory of lexicography is the typology of dictionaries. This layer attracts attention due to its quantitative relationship with external and internal factors. Therefore, the article highlights the fact that the terminological layer of the Uzbek language is currently developing due to the influence of external factors and internal resources related to word formation.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ТЕРМИНОЛОГИИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Хашимова Хуршида Джурахановна

University of Business and Science

доцент и т.д. (PhD) Наманган, Узбекистан

xurshidaxonxashimova@gmail.com. +99897-2317501

ARTICLE INFO

Received: 11th July 2024

Accepted: 16th July 2024

Online: 17th July 2024

KEY WORDS

Лексика, термин,
терминология,
терминологический
пласт, отраслевые
термины.

ABSTRACT

Известно, что развитие терминологии в разных языках тесно связано с факторами языкового развития, в частности, социальными, политическими, культурными и чисто лингвистическими причинами. Одним из наиболее актуальных вопросов теории лексикографии является типология словарей. Этот слой привлекает внимание своей количественной связью с внешними и внутренними факторами. Поэтому в статье подчеркивается тот факт, что терминологический пласт узбекского языка в настоящее время развивается за счет влияния внешних факторов и внутренних ресурсов, связанных со словообразованием.

MUSTAQILLIK TERMINOLOGIYASINING AYRIM QIRRALARI

Xashimova Xurshida Djuraxanovna

University of Business and Science dotsenti v.b. (PhD)

Namangan, O'zbekiston

xurshidaxonxashimova@gmail.com. +99897-2317501



ARTICLE INFO

Received: 11th July 2024

Accepted: 16th July 2024

Online: 17th July 2024

KEY WORDS

Leksika, termin,
terminologiya,
terminologik qatlam, soha
terminlari.

ABSTRACT

Turli tillarda terminologiyaning rivojlanishi tilning taraqqiyot omillari, xususan, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va sof lingvistik sabablari bilan chambarchas aloqadorligi ma'lum. Leksikografiya nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biri lug'atlar tipologiyasidir. Mazkur qatlam tashqi va ichki omillarga asosan miqdoriy jihatdan aloqadorligi bilan e'tiborni tortadi. Shu sababli maqolada o'zbek tilining terminologik qatlami hozirgi kunda tashqi omil va so'z yasash bilan bog'liq ichki manba ta'siri hisobidan rivojlanib borayotganligi yoritilgan.

Adabiy til – har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, leksik, fonetik va grammatik jihatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummilliy muloqot vositasidir¹. [1. Маънавият асосий тушунчалар луғати.18.] 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, 1993-yildan lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tish islohotlarining boshlanishi, 2020-yilda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish" borasida qabul qilingan bir qator farmon hamda qarorlarda hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari, til qo'llanishining amaliy jihatlari, milliy tilning elektron korpusini yaratish borasidagi tadqiqot hamda innovatsiyalarga keng yo'l ochib berildi.

O'ZRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2020, 5 jildli), "Davlat tilida ish yuritish" ("O'zbekiston", 2020), "O'zbek tili me'yorlari. Punktatsiya" ("Zamin nashr", 2021) kabi fundamental darslik va qo'llanmalar ishlab chiqilib, o'zbek tilining lug'aviy, imloviy, punktuatsion, rasmiy hujjatlar yuritish me'yorlari tartibga solib borilmoqda.

Adabiy tilning yuzaga kelishi va yaratilishi davlat hamda jamiyatchilik tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bundan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy, rasmiy sohalar va yozishmalar, idoraviy-hujjatchilik ishlari, diplomatik aloqalar, ommaviy axborot vositalari, targ'ibot va tashviqot yuritish, ilmiy va badiiy nashrlar, teatr va kino, maorif va tarbiya, madaniyat va ma'naviyat kabi ko'p yo'nalishlarning rivojlanishiga asos bo'ladi. Demak, ijtimoiy taraqqiyot adabiy tildan ko'p funksiyali bo'lishni talab qiladi. Natijada adabiy tilning uslubiy ko'rinishlari yuzaga kelib, tilning jozibadorligi, aniq joriylanishi kabi xususiyatlari rivojlanadi.

Muayyan mamlakatda adabiy til rivojining cho'qqiga chiqishi uning mintaqaviy til va jahon tili bo'lishi uchun zamin yaratadi. Buning uchun jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy jihatdan ham taraqqiy etishi lozim. Adabiy til o'zida milliy, mintaqaviy hamda global

¹ Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 18.



madaniyat va voqelikni aks ettirish funksiyasini ham jamlaydi. Zaruriy bilim, axborotlarni ifodalash, saqlash, uzatish vazifasini bajaruvchi ulkan omborga aylanadi.

Adabiy tilga xos yuqorida keltirilgan xususiyatlar uning og'zaki shakli uchun ham xosdir, chunki zamonaviy sharoitda og'zaki ifodalangan nutq matnlarini o'z holida yozib olish, uning fonetik, paralingvistik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etish uchun uzoq davr saqlashning keng texnikaviy usul-imkoniyatlari mavjud.

Adabiy til vazifasining kengayib borishi, unda murakkab uslubiy tarmoqlanishning yuzaga kelishi adabiy tilni rivojlantirish, vosita va imkoniyatlarni kengaytirish, boyitishni taqozo qilmoqda. Bunda adabiy til xalq tilining boshqa ko'rinishlaridan nisbatan boy lug'aviy tarkibga, takomillashgan grammatik qurilishga egaligi hamda uslubiy tarmoqlarining rivoj topganligi bilan farqlanish bilan birga, ulardan muhim manba sifatida ham foydalanadi, tilning boshqa ko'rinishlari taraqqiyotidan ham manfaatdor.

Turli tillarda terminologiyaning rivojlanishi tilning taraqqiyot omillari, xususan, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va sof lingvistik sabablari bilan chambarchas aloqadorligi ma'lum. Jumladan, muayyan til terminologik qatlamidagi o'zgarishlar shu til egalari jamiyatida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni, ayniqsa, ilm-fan sohasidagi yutuq hamda kamchiliklarni ko'rsatib beradi. Jumladan, XIV asrda o'zbek tilining taraqqiy etishi nafaqat Alisher Navoiy dahosi va iqtidori bilan, shuningdek, Markaziy Osiyoni bir geografik va siyosiy muhitga kiritgan temuriylar davlatchiligi bilan ham bog'liq edi.

Mustaqillik yillarida terminologiya va terminografiya sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi: terminologik lug'atlar salmog'i ancha ortdi. Mazkur terminlarning aksar qismi o'zbek tilining besh jildli izohli lug'atidan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi sahifalaridan o'rin oldi. Sohaviy terminlar va terminlarning sohalararo qo'llanishiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi.

Leksikografiya nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biri lug'atlar tipologiyasidir. Atoqli tilshunos G'.Abdurahmonov terminologik lug'atlar ma'lum fan sohasiga xizmat qilibgina qolmay, terminlarni tartibga solish, takomillashtirish hamda standartlashtirishda muhim o'rin egallashini ta'kidlagan: "Tanlangan termin bir ma'noli, ixcham so'z yoki birikmadan iborat bo'lishi, sinonimlarga ega bo'lmasligi kerak"². [2. Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3 – Б.85-89.]

Terminografiya terminologik lug'atlar tuzish, ya'ni terminografik faoliyatning ham nazariy, ham amaliy jihatlari bilan shug'ullanar ekan. Hozirgi kunda terminografiyada terminologik yoki maxsus lug'at deganda, ensiklopedik lug'atlarning biron-bir ixtisoslik terminlarini alohida bilim sohasi va fan-texnika tarmoqlaridagi tushuncha va predmetlarning nomlarini qamrab oluvchi, ularni tushuntirib, izohlab beruvchi turi tushuniladi. Terminologik lug'at faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda yondosh sohalarini terminlarini qamrab olishi mumkin.

Terminologiya, avvalo, terminologik lug'atlarning, shuningdek, umumtil leksikasining tarkibi sifatida filologik lug'atlarning, jumladan, izohli lug'atlarning semantik tavsif obyektidir.

O'zbek tilining terminologik qatlami hozirgi kunda tashqi omil va so'z yasash bilan bog'liq ichki manba ta'siri hisobidan rivojlanib bormoqda.

² Норхўжаева Н. Жараён терминларини тартибга солиш муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3 – Б.85-89.



Shu jihatdan o'zbek tilining terminologik qatlamida semantik jihatdan bir necha tarmoqlarda qo'llanadigan sohalararo terminlarning salmog'ini aniqlash, ularning leksikografik va semantik tavsifini amalga oshirish naqadar dolzarb masala ekanligi namoyon bo'ladi.

Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ma'lum lug'aviy birliklarning eskirib iste'moldan chiqishi, so'zlarni yangi ma'nolar yoki ayrim ma'nolarni yo'qotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y bergan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'plab mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayishi juda qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yuzlab diniy-tasavvufiy atamalarni iste'molga kirib kelishi ayni shu ijobiy ta'sir natijasidir³. [3. Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – № 5. – Б.3-13.3.]

Mustaqillik davri o'zbek tili lug'at tarkibida quyidagi lisoniy o'zgarishlar yuz berdi:

1. Xorijiy tillardan bevosita yoki bilvosita so'zlar olindi.

2. Tilning ichki imkoniyati hamda til egalari ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlashma tarkibli yangi so'zlar yasaldi.

3. So'z yoki ibora semantik strukturasi yangi ma'nolar bilan boyidi⁴. [4. Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. – № 2. – Б.41-45.] Shu sababli ham terminlar ham miqdor jihatdan, ham semantik jihatdan katta o'zgarishlarga duch keldi deyishimiz mumkin.

So'nggi yillarda terminologiyaga qiziqishning keskin oshishi bilimlarning turli sohalarida jadal rivojlanishi bilan izohlanadi. Bu sohada tadqiqotlar turli yo'nalishlarda olib borilayotganiga qaramay, fanlar terminologiyasi, xususan, logistika sohasidagi terminlarning shakllanish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu masala bilimlarning aniq yangi yo'nalishlari terminologiyalarini shakllanishi bilan bog'liq, chunki har qanday faoliyat sohasi terminologiyasi tavsifi uning rivojlanishida eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot, ochiq axborot, madaniyatlararo aloqaning rivojlanishi, bir tomondan, kasbiy faoliyat va terminologiyaning mutanosibligiga, boshqa tomondan esa, biznes faoliyati va hamkorlik samaradorligi kabi o'rinlarning yanada takomillashuviga sabab bo'lmoqda⁵. [5. Тил ва адабиёт таълими, 2021. – № 4. – Б.21-22.]

Shuningdek, ma'naviy sohada diniy e'tiqodga berilgan erkinlik, xalqona, milliy xalq terminologiyasiga bo'lgan qiziqish ham mustaqillik davri terminologiyasida ma'lum yo'nalishni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga terminologiyada depolitizatsiya, deideologizatsiya jarayoni ham kechib, ko'plab terminlarning leksikografik izohida siyosiy va ideologik qarashlardan xoli sof lingvistik tahlillar yuzaga keldi.

O'zbekistonning jadallik bilan xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishga intilishi, erkin, ochiq, keng investitsion muhitni yaratish uchun olib borilayotgan islohotlar global muhit ko'nikmalariga zudlik bilan ko'nikish va moslashishni taqozo qilmoqda.

³ Мадвалиев А. Ўзбек лексикографиясининг мустақиллик даври тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – № 5. – Б.3-13.

⁴ Одилов Ё. Мустақиллик даври лексикасида маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. – № 2. – Б.41-45.

⁵ Алаутдинова К. Термин ўрганиш муаммоси ва янги терминлар вужудга келиш эҳтиёжи // Тил ва адабиёт таълими, 2021. – № 4. – Б.21-22.



Sohaviy terminologiyaga oid tadqiqotlar va lug'atlarning yaratilishi izohli lug'atlarda ularning aks etishiga uzviy aloqador. Ijtimoiy omillar terminologik qatlamning asosiy o'zgartiruvchisi bo'lganligi tufayli, davr ruhini aynan aks ettiradigan terminologik qatlam albatta lug'atlarda o'z aksini topib boradi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish, shu asosda ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tatbiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

References:

1. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Ғафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 956 б.
2. Норхўжаева Н. Жараён терминларини тартибга солиш муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3 – Б.85-89.
3. Bekenova, G. T. (2022). Study of damage to the cardiovascular system in patients with systemic scleroderma. *Eurasian Scientific Herald*, 13, 19-25.
4. Berdiyeva, D. U., Djurayeva, E. R., Sultonova, M. X., Bekenova, G. T., & Pulatova, S. H. (2023). Evaluation of the effectiveness of target therapy in the treatment of patients with polyangiitis granulomatosis. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 50(07).
5. Зияева, Ф. К., Джураева, Э. Р., Ганиева, Н. А., Бекенова, Г. Т., & Арипова, Н. А. (2023). Особенности поражения нервной системы при анкилозирующем спондилоартрите (Doctoral dissertation, Ташкент).
6. Mukhammadieva, S. M., Bekenova, G. T., & Abdieva, Y. A. (2022). Effectiveness of vitamin D in the treatment of bone remodeling in ankylosing spondyloarthritis. *European journal of molecular medicine*, 2(2).
7. Бекенова, Г. Т., Кенжаева, Д. Х., & Абдуллаева, Г. Д. (2016). Оценка эффективности и отдаленных результатов лечения больных ревматоидным артритом. *Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области*, 5(4 (15)), 11-15.
8. Mavlyanov, I. R., Bekenova, G. T., & Mavlyanov, S. I. (2024). Modern Approaches to the Treatment of Rheumatoid Arthritis: Issues of Low Efficacy of Pharmacotherapy from the Point of View of Treatment Adherence. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 2(6), 120-129.
9. Bekenova, G. T., Axmedova, N. A., Ganiyeva, N. A., Asqarov, N. L., Tolipov, U. U., Alimova, N. Z., & Hasanova Sh, A. (2024). IMPORTANCE OF PULSE-THERAPY IN PERIPHERAL VASCULAR DAMAGE IN SYSTEMIC SCLERODERMA.
10. Отахонова, С. Т. (2018). Педагогларнинг касбий реориентацияси негизда мактабгача таълим муассасаси амалиётчи психологлари касбий қайта тайёрлаш масалалари. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-30.
11. Tulkinovna, O. S. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROTEST BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN.



12. Тураев, К. Н., & Собирова, Ш. (2023). АХБОРОТЛАШГАН ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАР МАЪНАВИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Journal of new century innovations*, 25(4), 17-20.
13. Rakhmanov, S. R., & Turaev, K. (2023). Development of algorithms for prediction of the technological process. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 04010). EDP Sciences.
14. Rakhmanov, S., Turaev, K., & Madaliev, D. (2023). Implementation of mathematical models and algorithms in task control of the microalgae cultivation processes. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 377, p. 03010). EDP Sciences.
15. Nortojiyevich, T. Q. (2023, September). TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TA'LIM MUHITIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 9, pp. 68-72).
16. Nortojiyevich, T. Q. (2023, September). TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TA'LIM MUHITIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 9, pp. 68-72).
17. Djumaniyozovna, S. R. (2023). XI ASR ADABIYOTIDA QOLLANILGAN XALQ OGZAKI IJODI NAMUNALARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(11), 91-96.
18. Raximova, S. (2023, May). BADIY MATNLARDA FE'L SO 'Z TURKUMIGA DOIR FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR POLISEMIYASI. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» *Международная научно-практическая конференция* (Vol. 2, No. 2).
19. Рахимова, С. Ж. (2022, August). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МЕТАФОРЛАРНИНГ ҲИССАСИ. In *E Conference Zone* (pp. 123-127).
20. Rakhimova, S. J. (2021). Problems of lexicographic interpretation of phraseological polysemis of Uzbek language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 127-132.
21. Хужаев, И. К., Юлдашев, Б. Э., & Куканова, М. А. (2012). Гидравлический расчёт кольцевого газопровода при наличии участка с равномерным путевым отбором газа. *Наука Красноярья*, (3), 39-47.
22. Хужаев, И. К., Юлдашев, Б. Э., & Куканова, М. А. (2011). Эффективность кольцевой структуры газопровода и алгоритм расчета ее гидродинамических показателей. *Вопросы вычислительной и прикладной математики. Аналитические методы и вычислительные алгоритмы решения задач математической физики. Ташкент*, (126), 132.
23. Равшанов, Н., Юлдашев, Б. Э., & Курбонов, Н. М. (2015). Компьютерное моделирование процессов добычи и транспортировки нефти и газа. *Ташкент: Тафаккур*.
24. Садуллаев, Р., & Юлдашев, Б. Э. (2005). Построение алгоритма трассировки и информационного обеспечения трубопроводных систем. *Алгоритмы, методы и системы обработки данных*, (10), 110-118.
25. Шералиев, С. С., Турсунметов, К. А., & Юлдашев, Б. Э. (2016). Электронный учебный комплекс «Виртуальные работы по механическим колебаниям и волнам». *Патент Республики Узбекистан. № DGU, 3628*.



26. Юлдашев, Б. Э., & Юлдашева, Н. Т. (2009). Повышение эффективности логопедического воздействия на детей путем специального включения компьютерных программ.
27. Юлдашев, Б. Э., Юлдашева, Н. Т., & Каршиев, Д. А. (2020). Профилактика и преодоление нарушений устной речи у детей с применением информационных технологий. *Новый день в медицине*, (1), 465-470.
28. Равшанов, Н., Каршиев, Д. А., & Юлдашев, Б. Э. (2018). Моделирование процесса переноса и диффузии мелкодисперсных частиц в атмосфере с учетом эрозии почвы. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (4), 140-152.
29. Aminova, K. M. (2019). Internet Media Is A Tool For Promoting Tolerance In Multimedia Societies. *International Journal of Scientific Research And Education*, 7(4), 8172-8177.
30. qizi AMINOVA, D. K. INTERNET JOURNALISM OF CHINA AND PROBLEMS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS.
31. қизи АМИНОВА, Д. Х. ҒАРБ ВА ШАРҚ МАДАНИЯТЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ.
32. АМИНОВА, Д. ИНТЕРНЕТ ЖУРНАЛИСТИКАСИ ИЛМИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ.
33. Qizi, A. D. K., & Muxammedjanovna, Y. M. (2020). Increasing the role and position of internet media in activation of intercultural communication. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(1), 1749-1757.
34. Yunusova, S. M. (2021). Paraphrases related to the language of advertising. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 236-240.
35. Yunusova, S. M., & Abdusattorova, K. H. (2024, June). NAVRUZ IN THE TEXT OF MODERN UZBEK ADVERTISING. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 6, pp. 42-47).
36. Юнусова, Ш. (2024). Non-linguistic means used in advertising texts. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 490-496.
37. Юнусова, Ш. (2024). Парафразы в языке рекламы. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(3), 291-295.
38. Юнусова, Ш. (2024, March). ҚАЗАҚ ТІЛІДІ ЖАРНАМА МӘТІНІНІҢ ЛИНГВИСТИКАЛЫҚ СИПАТЫ. In *Konferensiyalar/ Conferences* (Vol. 1, No. 7, pp. 56-58).
39. Mukhamedumarovna, Y. S. (2023, May). FUNCTIONS OF NON-LINGUISTIC MEANS IN ADVERTISING TEXTS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 3, No. 08.05, pp. 235-238).
40. Shaxnoza, Y. (2023). TURKIY TILLAR REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK TADQIQI (Qozoq tilidagi reklama matnlari misolida). *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(1), 23-26.
41. Yunusova, S. (2015). ON ADVERTISEMENT LEXIS. SLOGAN BASED RESEARCH. *Theoretical & Applied Science*, (3), 69-71.
42. Narkulovna, D. R. N. (2024). BOSHLANGICH SINFLARGA TABIIY FANLARNI OQITISHDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *worldly knowledge conferens*, 7(1), 95-98.
43. Джураева, Н. Н. (2023). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИИЙ (SCIENCE) ФАНЛАРДАН КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ВИРТУАЛ ТАЪЛИМ



ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY
METODLARNING QO'LLANILISHI*, 3(6), 134-139.

44. Косимов, М. О., & Аскарлов, А. М. (2024). Пути Улучшения Производства Буро-Взрывных Работ На Месторождении «Кальмакыр». *International Journal of Formal Education*, 3(5), 299-304.

45. Бердиева, Д. Х. (2022). РАСЧЕТ НАГРУЗКИ НА ЗАКЛАДКУ В УСЛОВИЯХ МЕСТОРОЖДЕНИИ КАУЛЬДЫ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 792-802.